

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.I.17.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UDK: 336.761(575.1)

IBODULLAYEV ABRORJON AXRORJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI
RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: Muxamedov Farxod Tursunbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	15
1.1.	Qimmatli qog‘ozlar bozorining iqtisodiy zarurati va funksiyalari...	15
1.2.	Qimmatli qog‘ozlar bozori: nazariy asoslar va klassifikatsiya yondashuvlari	35
1.3.	Qimmatli qog‘ozlar bozorining milliy va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.....	64
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	87
II BOB.	O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANISHI TAHLILI.....	89
2.1.	O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili.....	89
2.2.	Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolar va ularning echimlari.....	103
2.3.	Qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili va prognozlari.....	123
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	134
III BOB.	XORIJIY MAMLAKATLARDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	136
3.1.	Rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati: asosiy xususiyatlar, trendlar va dinamik tebranishlar.....	136
3.2.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish.....	151
3.3.	Xorijiy davlatlar qimmatli qog‘ozlar bozori indeksleri tahlili.....	173
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	186
IV BOB.	O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	188
4.1.	Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	188
4.2.	O‘rta va uzoq istiqbolda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.....	201
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....	212
	XULOSA.....	215
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	223
	ILOVALAR.....	236

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida so‘nggi yillarda moliyaviy bozorlarning, xususan, qimmatli qog‘ozlar bozorining roli va ahamiyati izchil oshib bormoqda. Global moliya bozorlarining rivojlanishi natijasida kapital bozorlari iqtisodiy o‘shish jarayonlarining strategik drayveriga aylanmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori orqali sarmoya resurslarining samarali taqsimlanishi, iqtisodiyotda mavjud bo‘sh moliyaviy zaxiralarni real sektorga yo‘naltirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, jahon kapital bozori orqali hosil bo‘ladigan likvid moliyaviy resurslar investitsiya faolligini rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda kapital bozorlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Masalan, AQSh iqtisodiyotida 2023-yil yakuniga kelib, fond bozorining umumiy kapitallashuv hajmi 40 trln. AQSh dollaridan oshib ketdi va bu ko‘rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 160 foiziga teng bo‘ldi. Bunday yuqori kapitallashuv darajasi AQSh kapital bozorining jahon moliya tizimidagi ustun mavqeini namoyon etmoqda. Bunda NASDAQ va NYSE kabi fond birjalari va birjadan tashqari bozorlar global likvidlik markazlari sifatida xizmat qilmoqda. Yaponiya kapital bozorida ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatilmoqda. 2023-yilda Tokio Stock Exchange (TSE) orqali shakllangan kapitallashuv hajmi 6,3 trln. AQSh dollarini tashkil etib, Yaponiya YaIMning 110 foiziga yetdi. Janubiy Koreya va Singapur kabi iqtisodiyoti yuqori texnologik tarmoqlarga tayanadigan mamlakatlarda ham kapital bozorining YAIMga nisbati mos ravishda 120–150 foiz atrofida shakllangan. Yevropa davlatlari ichida Germaniyada Frankfurt Stock Exchange (Xetra) orqali kapitallashuv hajmi 2,2 trln. dollarni tashkil qilib, YAIMning 90 foizidan ortig‘ini qamrab olgan. Buyuk Britaniyada London Stock Exchange kapitallashuvi 3,2 trln. AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich YAIMning taxminan 125 foizini tashkil etgan¹.

¹ <https://data360.worldbank.org/en/economies> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Jahon amaliyotida moliya bozorlari global raqobatining keskin kuchayib borishi sharoitida, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda asosan iqtisodiyotning barqaror moliyalashtirilishini ta'minlashda qimmatli qog'ozlar bozorining strategik roli, uning salohiyatidan to'liq foydalanish zaruriyati, shuningdek, fond bozorlarini xalqaro standartlar asosida integratsiya qilish masalalari tahlil etilmoqda. Xususan, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda fond bozorining iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda asosiy moliyalashtirish mexanizmi sifatida rivojlantirilishi masalasi muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy moliyaviy tizimda bank kreditlari bilan bir qatorda kapital bozorlari orqali investitsiya resurslarini jalb etish, ularni samarali taqsimlash va ishlatish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu munosabat bilan, fond birjalari faoliyatining xalqaro moliyaviy infratuzilmalar, ya'ni global birja platformalari, xalqaro depozitariy tizimlari va kliring markazlari bilan muvofiqlashtirilishi va integratsiyalashuvi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Bundan tashqari, fond bozorlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va makroiqtisodiy omillar sifatida mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, valyutaning barqarorligi, ichki va tashqi qarz yuki, investitsion muhit barqarorligi kabi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin. Shuningdek, institutsional omillar sifatida korporativ boshqaruv madaniyati, moliyaviy savodxonlik darajasi, investorlarni himoya qilish mexanizmlari, auditorlik tizimi va oshkoralik standartlari ham fond bozori barqaror rivojlanishining zaruriy shartlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish faoliyatida raqobatbardoshlikni kengaytirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonlarini dunyo standartlariga muvofiq olib borish, iqtisodiyotga investitsiyalarni, birinchi navbatda bazaviy va tarkibiy asoslarni tashkil etuvchi muhim sohalarga jalb etishga qaratilgan